

	M.Qodirov - TDSHU, «Sharq falsafasi va madaniyati» kafedrasi dotsenti, falsafa fanlari nomzodi, dotsent.
9.	Taqrizchilar: G.M. Ro'zmatova - UzMU «Falsafa va mantiq» kafedrasi professori, falsafa fanlari doktori, professor; R.R. Karimov - UzMU «Falsafa va mantiq» kafedrasi dotsenti, falsafa fanlari nomzodi, dotsent.

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI

“TASDIQLAYMAN”

G.Sh.Rixsiyeva

2020 yil 18 08

“KELISHILDI”

Oliy va o'rta maxsus ta'lim
vazirligi

2020 yil 18 08

Ro'yxatga olindi: №MD- 5A120502
2020 yil 18 08

GLOBALLASHUV VA MILLIY MADANIYATLAR RIVOJI

FAN DASTURI

Bilim sohasi: 100000 – Gumanitar soha

Ta'lim sohasi: 120000 – Gumanitar fanlar

Mutaxassislik: 5A120502 – Sharq falsafasi va madaniyati

Toshkent – 2020

	15. Karimov I.A. To'la asarlar to'plami. 1-24 jildlar. – T.:O'zbekiston, 1996-2016. 16. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat–yengilmas kuch. –T.:Ma'naviyat, 2008. 17. Imomnazarov M., Eshmuhamedova M. Milliy ma'naviyatimiz asoslari. O'quv qo'llanma. – T.: Toshkent islom universiteti, 2001. 18. Karimov I. Noosfera: geosiyosat va mafkura. O'quv qo'llanma. –T.:Fan, 2007 19. Otamuratov S. Globallashuv va milliy-ma'naviy xavfsizdik. -T.:O'zbekiston, 2015. 20. Ochildiev A. Globallashuv va mafkuraviy jarayonlar. –T.: Muharrir nashriyoti, 2009. 21. Ochildiev A. Milliy g'oya va millatlararo munosabatlar. – T.: O'zbekiston, 2004. 22. G'oyibnazarov Sh. Ommaviy madaniyat. –T.: O'zbekiston, 2012. 23. Ma'naviyat. Asosiy tushunchalar izohli lug'ati. –T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2010. 24. Чумаков А.Н. Метафизика глобализации. Культурно-цивилизационный контекст.-М.:Канон, 2006. Axborot manbaalari 25. www.lex.uz. 26. www.gov.uz. 27. www.library.ziyonet.uz. 28. www.faylasuf.uz. 29. http://booksss.ru/filosofiya/Slovar_Philosof.rar 30. http://znanium.com/globalistika 31. http://www.philosophy.ru Библиотека Института философии. 32. https://roscongress.org/materials/tsifrovaya-globalizatsiya-novaya-epokha-globalnykh-potokov/
7.	Fan dasturi Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'nalishlari bo'yicha O'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengashning 2020 yil "<u>29</u> <u>08</u>" dagi <u>4</u>-sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2020 yil "<u>29</u>" <u>08</u>" dagi <u>452</u>-sonli buyrug'i bilan ma'qullangan fan dasturlarini tayanch oliy ta'lim muassasasi tomonidan tasdiqlashga rozilik berilgan.
8.	Fan/modul uchun mas'ul: D.A.Pulatova - TDSHU, «Sharq falsafasi va madaniyati» kafedrasini mudiri, falsafa fanlari nomzodi, professor

	• taqdimotlarni qilish; • individual loyihalar; • jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.
5.	VII. Kreditlarni olish uchun talablar: Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.
6.	Asosiy adabiyotlar 1. Otamuratov S. Globallashuv: Millatni asrash mas'uliyati. -T.:O'zbekiston, 2018. 2. Muminov A. Milliy siyosat va madaniy sohadagi islohotlar. O'quv qo'llanma. -T.: Akademiya, 2010. 3. Деpracёв В.А. Глобалистика. Учебное пособие. -М.: ЮНИТИ, 2005. Qo'shimcha adabiyotlar 4. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini 5. birgalikda barpo etamiz. -T.: O'zbekiston, 2016. 6. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. -T.: O'zbekiston, 2017. 7. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. -T.: 2017. 8. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan quramiz. -T.: O'zbekiston, 2017. 9. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. -T.: O'zbekiston, 2018. 10. Мирзиёев Ш.М. Нияти улуг халқнинг иши ҳам улуг, ҳаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади. -T.:Ўзбекистон, 2019. 11. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. www.press-service.uz/uz/lists/view/1371 12. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha harakatlar strategiyasi// https://www.lex.uz 13. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida O'zbekistondagi Islom madaniyati markazini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida// www.press-service.uz/uz/lists/view/688 14. Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo'yicha muhim vazifalar belgilab berildi (Besh tashabbus)//http://www.uza.uz/oz/politics/prezident-yeshlar-manaviyatini-yuksaltirish-ularning-b-sh-va-19-03-2019

Fan/modul kodi	O'quv yili	Semestr	ECTS - Kreditlar	
5AGMM224	2020-2021	2	4	
Fan/modul turi	Ta'lim tili		Haftadagi dars soatlari	
Majburiy	O'zbek/rus		4	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Globallashuv va milliy madaniyatlar rivoji	60	60	120
2.	I. Fanning mazmuni Fanni o'qitishdan maqsad – magistrantlarga globallashuv jarayonlarining ijtimoiy hodisa sifatida mohiyati va yo'nalishlari, bugungi kunda mafkuraviy globallashuvning milliy ma'naviy madaniyatga ta'siri, globallashuv davrida milliy madaniyat va milliy o'zlikni anglash masalalarining namoyon bo'lish xususiyatlari bo'yicha nazariy bilimlarni o'rgatish va amaliyotda tatbiq etish konikmasini shakllantirishdan iborat. Fanning vazifasi – globallashuv jarayonlarining ijtimoiy hodisa sifatida mohiyati va yo'nalishlari; milliy rivojlanishga ta'siri va uning oqibatlarini; milliy madaniyat va milliy o'zlikni anglash masalalarining namoyon bo'lish xususiyatlarini ochib berishga qaratilgan. II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari) III. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi: 1-mavzu. «Globallashuv va milliy madaniyatlar rivoji» fanining predmeti, mazmuni, maqsadi va vazifalari Fanning predmeti, mazmuni va strukturasi. «Globallashuv va milliy madaniyatlar rivoji» fanining maqsadi va vazifalari. Fanning «Markaziy Osiyo xalqlarining tabiiy-ilmiy, ijtimoiy-falsafiy merosi», «Yangi va eng yangi davr Sharq falsafasi», «Zamonaviy G'arb falsafasining muammolari va yo'nalishlari» va boshqa mutaxassislik fanlari bilan o'zaro bog'liqligi. «Globallashuv» va «milliy madaniyat» tushunchalari. Globallashuv jarayonlarining mohiyati va muammolarini o'rganishda «Globallashuv va milliy madaniyatlar rivoji» fanining ahamiyati. 2-mavzu. Millatning ijtimoiy, tarixiy-falsafiy mohiyati			

Millat tushunchasi va unga turli qarashlar. Qur'oni karimda, Sharq mutafakkirlari asarlarida millat tushunchasining qo'llanilishi. Millatni o'rganishga qiziqishning ortib borishi sabablari. Millatni shakllantiruvchi omillar. Millatning shakllanishida xudud, til, milliy suverenitet va milliy o'zlikni anglashning ahamiyati. Insonning millati. 3-mavzu. Globallashuv jarayoni va uning yo'nalishlari Globallashuv tushunchasi va unga turli qarashlar. Globallashuv jarayonini o'rganishga qiziqishning ortib borishi sabablari. Globallashuv sharoitida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi, raqamli tizim jamiyatning barcha sohalariga kirib kelayotganligi va uning oqibatlari. Siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, mafkuraviy globallashuv zamonaviy globallashuv jarayonining asosiy yo'nalishlari sifatida. 4-mavzu. Siyosiy globallashuv va uning turlari Neoliberal globallashuv. Xalqaro aloqalar va xalqaro siyosat. Global siyosat tarixi. Siyosiy integratsiya va globallashuv. Davlat xalqaro aloqalar sub'ekti sifatida. Davlat-millat muammosi. An'anaviy geosiyosat va uning umumiy yo'nalishi. Geosiyosatda yevropotsentrizm mayllari va uning oqibatlari. Ikkinchi jahon urushidan keyingi geosiyosatning asosiy yo'nalishlari. XX asr oxiri – XXI asr boshlariga kelib, geosiyosatdagi o'zgarishlar; muammolarning asosiy xususiyatlari. Mustaqil O'zbekiston tashqi siyosatining ustivor yo'nalishlari va geosiyosiy jihatlari. 5-mavzu. Ijtimoiy globallashuv Neoliberalizm va oila institutiga munosabatning o'zgarishi. Jahon dinlari. «Islom omili» tushunchasi, mohiyati, kelib chiqish sabablari. Madaniy globallashuv. Ijtimoiy ongni shakllantirishda raqamli texnologiyalar: Twitter, Facebook, YouTube, Telegramm, Zuum ning o'zni. Ta'lim sohasini rivojlantirishda raqamli texnologiyalarning o'zni. 6-mavzu. Iqtisodiy globallashuv

15. Milliy taraqqiyotning ma'naviy-axloqiy negizlari. 16. Globallashuv davrida O'zbekistonda milliy ma'naviyat va madaniyat rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari. 18. O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini barpo etishda millatlararo totuvlik omilining roli. 19. Hozirgi davrda ko'pmillatli O'zbekiston xalqi madaniy-ma'naviy o'ziga xosligini rivojlantirishning yetakchi yo'nalishlari. 20. Barqarorlik, tinchlik, millatlararo totuvlik – jahon hamjamiyatiga yo'l ochuvchi ijtimoiy-siyosiy qadriyat sifatida. Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi. 3. V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar) Fanni o'zlashtirish natijasida magistrant: • globallashuv jarayonlarining ijtimoiy hodisa sifatida mohiyati va yo'nalishlari; global mojarolar, muammo va tahdidlar; bugungi kunda mafkuraviy globallashuvning milliy ma'naviy madaniyatga ta'siri <i>haqida tasavvurga ega bo'lishi</i>; • globallashuv, millat tushunchalarining mazmuni va mohiyatini; globallashuvning milliy rivojlanishga ta'siri va uning oqibatlarini; globallashuv sharoitida milliy madaniyat va milliy o'zlikni anglash masalalarining namoyon bo'lish xususiyatlarini; O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini barpo etishda millatlararo totuvlik omilining rolini; ko'pmillatli O'zbekiston xalqi madaniy-ma'naviy o'ziga xosligini rivojlantirishning yetakchi yo'nalishlarini <i>bilishi va ulardan foydalana olishi</i>; • globallashuv sharoitida yuzaga kelgan ma'naviy tahdidlarni aniqlash va ularga qarshi turishda Sharq xalqlari madaniyati va ma'naviy merosidan samarali foydalanish <i>ko'nikmalariga ega bo'lishi</i>; • globallashuv sharoitida yuzaga kelgan mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashda, yoshlarning ma'naviy immunitetini shakllantirishda Sharq falsafasi va madaniyatida o'z aksini topgan dunyoviylik va diniylikning o'zaro uyg'unligiga asoslangan qadriyatlardan foydalanish <i>malakalariga ega bo'lishi kerak</i>. 4. VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari: • ma'ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • seminarlar (mantiqiy fiklash, tezkor savol-javoblar); • guruhlarda ishlash;
--

12. O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini barpo etishda millatlararo totuvlik omilining roli.

13. Mamlakatni modernizatsiyalash va demokratlashtirish sharoitida ko'pmillatli O'zbekiston xalqi madaniy-ma'naviy o'ziga xosligini rivojlantirishning yetakchi yo'nalishlari.

14. Milliy an'analarni tiklash va modernizatsiya qilish siyosati – ma'naviyatni yuksaltirish va inson axloqini mustahkamlashning omili sifatida.

15. «Ommaviy madaniyat» va uning globallashuv sharoitida milliy ma'naviyat rivojlanishiga ta'siri.

16. Global mojarolar, muammo va tahdidlar, ularni hal etish imkoniyatlari.

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interfaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Millat tushunchasi va unga turli qarashlar.
2. Millatning ijtimoiy, tarixiy-falsafiy mohiyati.
3. Globallashuv tushunchasi va unga turli qarashlar.
4. Globallashuv sharoitida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi hamda jamiyatning barcha sohalariga kirib kelayotganligining oqibatlari, yo'nalishlari.
5. Siyosiy globallashuv va uning turlari.
6. Ijtimoiy globallashuv.
7. Iqtisodiy globallashuv.
8. Mafkuraviy globallashuvning o'ziga xos xususiyatlari.
9. «Ommaviy madaniyat» tushunchasi, uning ijobiy va salbiy jihatlari.
10. Global mojarolar, muammo va tahdidlar.
11. Umumbashariy muammolar va bashariyat barqaror rivojlanishining shartlari.
12. Sivilizatsiya va milliy madaniyat tushunchalarining nisbati.
13. Globallashuv davrida milliy ma'naviyatning o'sishi milliy madaniyat rivojlanishining muhim omili sifatida.
14. Globallashuv davrida milliy madaniyat va milliy o'zlikni anglash masalalari.

Jahon iqtisodiy siyosati loyihasi. Transmilliy korporatsiyalarning vujudga kelishi. Jahon iqtisodiy tartibi. Global (axborotlashgan) siyosat. Jahon moliyaviy inqirozi: sabablari va oqibatlari.

Milliy manfaat tushunchasi, uning mazmuni va mohiyati. Milliy manfaat milliy munosabatlarning asosi sifatida. Globallashuv davrida milliy manfaat va milliy munosabatlarning o'zaro nisbati muammolarining yuzaga kelishi. O'zbekistonning tashqi va ichki siyosatida milliy mafaatlarning ustivorligi.

Iqtisodiy rivojlanish qutblari va istiqbollari. Iqtisodiyotni rivojlantirishda raqamli texnologiyalarning o'rni.

7-mavzu. Mafkuraviy globallashuvning o'ziga xos xususiyatlari

Mafkuraviy globallashuvning mohiyati. Mafkuraviy globallashuvning milliy ma'naviy madaniyatga ta'siri. Kinematograf va global mafkuraviy ta'sir o'tkazishning o'ziga xos xususiyatlari. Mafkuraviy globallashuvda ommaviy axborot vositalari raqamli texnologiyalarning o'rni.

Milliy ma'naviyat va qadriyatlar. «Ommaviy madaniyat» tushunchasi, mazmuni va mohiyati.

8-mavzu. Global mojarolar, muammo va tahdidlar

Jahon urushlari. Jahon urushlari keltirib chiqaruvchi asosiy sabablar va bahonalar. «Sovuq urushlar» va «gumanitar tahdidlar». «Mafkuraviy poligon» tushunchasi va uning mohiyati.

G'arazli geostrategik maqsadlarni amalga oshirishda dindand foydalanishning zararli oqibatlari. Dinning mohiyatini buzib ko'rsatish – mafkura va amaliyot sifatida. Globallashuv sharoitida «islom omili» muammosining keltirib chiqarilishi. Missionerlik va prozelitizm. Ularning shaxs milliy ma'naviyatiga salbiy ta'siri.

9-mavzu. «Madaniyat-sivilizatsiya-globallashuv» metatizimi va uning dinamikasi

Globallashuv madaniyat va sivilizatsiya bilan o'zaro aloqador yaxlit tizim sifatida. Madaniyat – jamiyatdagi moddiy va ma'naviy qadriyatlarning majmui. Sivilizatsiya – jamiyatning texnik va texnologik ta'minoti bilan bog'liq aloqalar tizimi. Globallashuv jamiyatda sohalarining turli mamlakat va xalqlar bilan o'zaro aloqadorligi hamda ularning rivojlanish dinamikasi sifatida.

Umumbashariy muammolar va bashariyat barqaror rivojlanishining shartlari.

10-mavzu. Milliy taraqqiyotning ma'naviy-axloqiy negizlari

Milliy ong va milliy psixologiya tushunchalari, ularning mazmuni va mohiyati. Milliy ong va milliy psixologiya har bir millatga xos xususiyat sifatida. Milliy o'z-o'zini anglashning namoyon bo'lish shakllari. Milliy o'z-o'zini anglashning, milliy g'ururning o'sishi – demokratik o'zgarishlarning qonuniy oqibati.

Turli millatlar taraqqiyot yo'lining o'ziga xos zaminlari. Milliy qadriyat tushunchasi, uning mazmuni va mohiyati. Milliy o'zlikni anglash va milliy qadriyatlarga munosabatning shakllanish jarayonining o'zaro aloqadorligi. O'zbekiston milliy taraqqiyotning ma'naviy-axloqiy negizlari.

11-mavzu. Globallashuv davrida O'zbekistonda milliy ma'naviyat va madaniyat rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari

Mustaqillik sharoitida milliy madaniy-ma'naviy qadriyatlarga munosabatning tubdan o'zgarishi. Ma'naviy meros, madaniy boyliklar, ko'hna tarixiy yodgorliklarni asrab-avaylash, muqaddas islom dinini pok saqlash, buyuk alloma va mutafakkirlarimizning merosini, ularning ibratli hayotini yoshlarga yetkazishga; oilaning o'rni mustahkamlash va nufuzini, mahalla institutining huquqiy va amaliy mavqeini oshirishga; ta'lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilishga qaratilgan sayi harakatlar, ularning davlat siyosati darajasigacha ko'tarilishi.

12-mavzu. O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini barpo etishda millatlararo totuvlik omilining roli

Millatlararo totuvlikni qaror toptirish jamiyat barqaror rivojlanishining poydevori sifatida. Mamlakatni modernizatsiyalash va demokratlashtirish sharoitida ko'pmillatli O'zbekiston xalqida fuqarolik hissi va fuqarolik madaniyatini shakllantirishda milliy g'oyaning o'rni. Ma'naviy yangilanish jarayonini davlat tomonidan tartibga solish yo'nalishlari. Milliy mafkuraning mohiyati.

O'zbekistonda yashovchi turli millat va elatlarning madaniy-ma'naviy qadriyatlarini mustahkamlashda milliy madaniy markazlar faolitiyaning o'rni.

13-mavzu. Mamlakatni modernizatsiyalash va demokratlashtirish

sharoitida ko'pmillatli O'zbekiston xalqi madaniy-ma'naviy o'ziga xosligini rivojlantirishning yetakchi yo'nalishlari

O'zbek tilining davlat tili sifatida maqomining mustahkamlanishi va milliy tillarni rivojlantirish siyosatining amalga oshirilishi. Milliy istiqlol konsepsiyasining ishlab chiqilishi. Uning milliy ong va milliy o'zlikni anglashning tiklanishiga ta'siri. Ijtimoiy muros, tolerantlik va ijtimoiy hamkorlik konsepsiyalarining ishlab chiqilishi. Milliy madaniyat va milliy qadriyatlarning tiklanishi va ularning millatlararo munosabatlar taraqqiyotidagi o'rni.

14-mavzu. Milliy an'analarni tiklash va modernizatsiya qilish siyosati – ma'naviyatni yuksaltirish va inson axloqini mustahkamlashning omili sifatida

Milliy va umumbashariy qadriyatlar uyg'unligi tamoyilini qo'llab-quvvatlanishi. Markaziy Osiyo xalqlarining birligi g'oyasining yuksaltirilishi, ular o'rtasidagi ilmiy, madaniy-ma'rifiy aloqalarni takomillashtirilishi. Dinga nisbatan yangicha siyosat va o'zbek xalqi ma'naviyatining rivojlanishida islomning roli. Huquqiy demokratik davlat barpo etayotgan O'zbekistonda inson huquqlari va erkinliklarini nafaqat qonunlar orqali, balki xalqning o'zligini anglashi, axloqiy qadriyatlari va madaniyati bilan mustahkamlab borilishining ahamiyati.

III. Amaliy mashg'ulotlari buyicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. «Globallashuv va milliy madaniyatlar rivoji» fanining predmeti, mazmuni, maqsadi va vazifalari.
2. Millatning ijtimoiy, tarixiy-falsafiy mohiyati.
3. Globallashuv jarayoni va uning yo'nalishlari.
4. Siyosiy globallashuv va uning turlari.
5. Ijtimoiy globallashuv.
6. Iqtisodiy globallashuv.
7. Mafkuraviy globallashuvning o'ziga xos xususiyatlari.
8. Global mojarolar, muammo va tahdidlar.
9. «Madaniyat-sivilizatsiya-globallashuv» metatizimi va uning dinamikasi.
10. Milliy taraqqiyotning ma'naviy-axloqiy negizlari.
11. Globallashuv davrida O'zbekistonda milliy ma'naviyat va madaniyat rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari.